To‘raqulova Yoqutoy Shovkat qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Davolash fakulteti talabasi

Toshkent shahar. O‘zbekiston.

E-mail: toraqulovayoqutoy@gmail.com

Ilmiy rahbar: Dotsent **Umirzakova Nargiza Akmalovna**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti. N.a.umirzakova@gmail.com

ESTETIK JARROHLIKNING AHLOQIY MASALALARI

Annotasiya

Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyotning jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri — estetik jarrohlikning mohiyati, uning rekonstruktiv jarrohlikdan farqi va jamiyatdagi o‘rni tahlil qilindi. Muallif estetik operatsiyalarning axloqiy va bioetik jihatlariga alohida to‘xtalib, jarroh mas’uliyati, bemor motivatsiyasi hamda dismorfofobiya kabi psixologik omillarni ko’rib chiqdi. Shuningdek, maqolada plastik jarrohlikka Islom dini nuqtai nazaridan yondashilib, qaysi holatlarda jarrohlik amaliyoti joiz yoki gunoh sanalishi masalalari Qur’on oyatlari va tibbiy zaruriyatlar asosida yoritilgdi. Maqola soha mutaxassislari, talabalar va tashqi qiyofasini o‘zgartirish istagida bo‘lgan keng ommaga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar

estetik jarrohlik, rekonstruktiv jarrohlik, bioetika, dismorfofobiya, go‘zallik standartlari, Islom va tibbiyot, tibbiy zaruriyat, psixologik bosim.

ЭТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ

Аннотация

В данной статье анализируется суть эстетической хирургии как одного из динамично развивающегося направления современной медицины, её отличие от реконструктивной хирургии и роль применения в обществе. Автор уделяет особое внимание этическим и биоэтическим аспектам эстетических операций, рассматривая ответственность хирурга, мотивацию пациента и такие психологические факторы, как дисморфофобия. Также в статье представлен взгляд на пластическую хирургию в контексте религии ислам, где на основе аятов Корана и медицинской необходимости разъясняется, в каких случаях хирургическое вмешательство считается допустимым или греховным. Статья предназначена для специалистов отрасли, студентов и широкого круга читателей.

Ключевые слова

эстетическая хирургия, реконструктивная хирургия, биоэтика, дисморфофобия, стандарты красоты, ислам и медицина, медицинская необходимость, психологическое давление.

ETHICAL ISSUES OF AESTHETIC SURGERY

Abstract

This article explores the essence and societal role of aesthetic surgery, one of the most rapidly developing fields of modern medicine, distinguishing it from reconstructive surgery. The author focuses on the ethical and bioethical dimensions of aesthetic procedures, examining the surgeon's responsibility, patient motivation, and psychological factors such as body dysmorphic disorder (BDD). Furthermore, the study addresses plastic surgery within the context of Islamic teachings, outlining where surgical intervention is considered permissible or prohibited based on Quranic verses and medical necessity. The article is intended for medical professionals, students, and a general audience interested in the psychological and ethical boundaries of physical transformation.

Keywords

aesthetic surgery, reconstructive surgery, bioethics, body dysmorphic disorder, beauty standards, Islam and medicine, medical necessity, psychological pressure.

Estetik jarrohlik – bu tashqi ko‘rinishni o‘zgartirish yoki yaxshilash maqsadida bajariladigan tibbiy operatsiyalar majmuasidir. Ushbu soha oxirgi yillarda jadal rivojlanib, go‘zallik standarti tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan jamiyatda keng tarqalgan. Burun shaklini o‘zgartirish, lab yoki yanoqlarni kattalashtirish, yog‘ qatlamlarini olib tashlash kabi amaliyotlar keng ommalashgan. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda go‘zallikka oid ideal standartlarning targ‘ib qilinishi estetik jarrohlikka bo‘lgan talabni oshirdi [3]. Bu esa, o‘z navbatida, uning axloqiy jihatlarini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi.

Xalqaro estetik plastik jarrohlik jamiyati (ISAPS) va sohadagi so’nggi hisobotlarga ko’ra, dunyo bo’ylab quyidagi tendentsiyalar kuzatilmoqda:

Tarixda birinchi marta Blefaroplastika (ko’z qovog’i jarrohligi) ko’p yillik yetakchi bo’lgan liposaksiyani ortda qoldirib, birinchi o’ringa chiqdi.

2024-2025 yildagi statistik ma’lumotlarga ko’ra, eng ommabop jarrohlik amaliyotlar soni quyidagicha berilgan:

Blefaroplastika (Ko’z qovog’i): ~2.1 million operatsiya (yillik +13.4% o’sish).

Liposaksiya (Yog’ oldirish): ~2.0 million operatsiya.

Sut bezlarini kattalashtirish: ~1.6 million operatsiya.

Rinoplastika (Burun shakli): ~1.0 million operatsiya.

Abdominoplastika (Qorin tortish): ~0.9 million operatsiya.

Tibbiyotda “rekonstruktiv” (tiklovchi) va “estetik” (go‘zallik uchun) jarrohlik farqlanadi[2]. Rekonstruktiv jarrohlik tug‘ma nuqsonlar yoki jarohatlardan keyingi holatlarni davolasa, estetik jarrohlik ixtiyoriy xarakterga ega.

Estetik jarrohlikning axloqiy nuqtai nazardan bir nechta muhim savollarni yuzaga keltiradi: bu operatsiyalari insonning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradimi yoki aksincha, sun’iy standartlarga moslashishga majbur qiladimi? Inson tabiiy qiyofasini o‘zgartirishga haqqi bormi? Shu bilan birga estetik operatsiyalarga ehtiyoj ko‘proq psixologik bosim [4], jamiyatning go‘zalikka bo‘lgan talablari yoki ishonchsizlik natijasimi?

Bu sohada bioetika tamoyillari birinchi o‘ringa chiqadi. Jarroh uchun eng katta mas’uliyat — bemorning xohishi bilan tibbiy zaruriyat o‘rtasidagi muvozanatni topishdir.

Avvalo, zarar yetkazmaslik! Sog‘lom organga yoki to‘qimaga aralashish har doim xavf (narkoz, infeksiya, chandiq) tug‘diradi. Shifokor foyda va zararni to’g’ri baholashi shart. Bemorning motivatsiyasi: Agar bemor “Dismorfofobiya” (o’z tashqi ko’rinishidan asossiz nafratlanish) bilan kasallangan bo’lsa [5], jarroh uni operatsiya qilish o’rniga psixoterapevtga yo’naltirishi axloqan to’g’ri hisoblanadi. Shuningdek, estetik operatsiyalar inson qadriyatlariga, ya’ni insonning o‘z tabiiyligiga hurmat bilan qarash tamoyiliga qarama-qarshi kelishi mumkin. Axloqiy jihatdan bu holat — tabiatga aralashish [6], sun’iylikka intilish deb baholanadi.

Tibbiyotning asosiy vazifasi — inson hayotini saqlab qolish [7], sog‘lomlashtirishdir. Estetik jarrohlik esa aksariyat hollarda hayot uchun zarur bo‘lmagan, balki tashqi ko‘rinishni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu sababli tibbiy amaliyotda bu turdagi operatsiyalarni bajarish uchun ma’lum axloqiy chegaralar belgilanishi kerak.

Tibbiyotda har qanday aralashuvning qat’iy chegaralari bo’lishi lozim: Fiziologik chegara: Inson hayoti va a’zolari funksiyasiga xavf tug‘diradigan operatsiyalarni o‘tkazish mumkin emas. Masalan, nafas olishni qiyinlashtiradigan darajada burunni kichiklashtirish. Yosh chegarasi: Voyaga yetmaganlarga (tibbiy ko’rsatma bo’lmaganda) estetik operatsiyalar o’tkazish tavsiya etilmaydi, chunki organizm hali shakllanish jarayonida bo’ladi. Ruhiy chegara: Jarroh bemorning real bo’lmagan kutuvlarini qondirmasligi kerak[8].

Estetik jarrohlikning ommalashuvi jamiyatda “go‘zallik bosimi” degan tushunchani kuchaytiradi. Bu holat odamlarning o‘z qiyofasiga nisbatan norozilik hiissini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar va o‘smirlar orasida o‘zini tanqid qilish, psixologik bosim, komplekslar paydo bo‘lish xavfi ortadi.

Islom dini inson tanasini Allohning bir ne’mati, mukammal yaratilgan mo‘jiza sifatida qaraydi.

Qur’oni Karimda: “Biz, albatta, insonni eng go‘zal qiyofada yaratdik.” [1] deb yozilgan. Bu oyat shuni anglatadiki, insonning tabiiy holati Alloh tomonidan mukammal qilib yaratilgan.

Hozirgi vaqtda plastik jarrohlik islom dini kontekstida keskin va qizg’in munozaralarga sabab bolmoqda. Aksariyat odamlar islom plastik jarrohlik amaliyotini rad etadi, deb hisoblashadi, chunki uning ko’plab usullari tashqi ko’rinishini estetik tuzatishga qaratilgan, bu esa Allohning ijodiga ziddir. Tana a’zolarini o‘zgartirish yoki sun’iy tarzda shakllantirish islomda faqat zarurat bo‘lsa, ya’ni sog‘liq, hayot xavfsizligi yoki jiddiy nuqsonlarni tuzatish holatlaridagina joiz sanaladi. Masalan, jag‘-yuz sohasida ko‘p uchraydigan tug‘ma anomaliyalar bor, masalan, quyon lab, bo‘ri tanglay, burun pardasining egilishi, ularni teri va suyak plastikasini qo‘llagan holda plastik operatsiyalar yordamida bartaraf etiladi [5]. Shu kabi tug‘ma nuqsonlar, kuyish yoki

avariya natijasida yuzaga kelgan jiddiy deformatsiyalarni tuzatish — bu nafaqat joiz, balki inson huquqini tiklash va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Bunday hollarda estetik jarrohlik tibbiy zarurat sifatida qaraladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak estetik jarrohlik zamonaviy tibbiyot va jamiyat hayotida tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Bu sohaga bo‘lgan talab insonlarning o‘z qiyofasini o‘zgartirish, jamiyatda o‘zini ishonchli his etish, tashqi ko‘rinish orqali ijtimoiy mavqeini mustahkamlash istagi bilan bog‘liq. Shuni unutmaslik kerakki, tashqi ko‘rinishni o‘rinli sabablarsiz o‘zgartirish Islom dinida gunoh sanaladi. Lekin asosli ehtiyoji tufayli plastik operatsiyalar qilinadigan bo‘lsa, bu joiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1] Qur’on. An-Nisa.

2] Asqarov I.R. “Plastik va estetik jarrohlik asoslari”. Toshkent, 2020. (O‘quv qo‘llanma).

3] Karimov Sh.I. “Xirurgik kasalliklar”. Toshkent, “Ibn Sino”, 2015. (Umumiy jarrohlik tamoyillari uchun).

4]G‘oziyev E.G‘. “Umumiy psixologiya”. Toshkent, 2010. (Bemorlarning o‘z tashqi ko‘rinishiga bo‘lgan munosabati va psixologik tiplari bo‘yicha).

6. Захир И., Аль-Хади С. (2022). Косметическая хирургия в мусульманских общинах: исследование общественного мнения и религиозных взглядов. Ближневосточный журнал социальных наук, 9(1), 134-146.

7. Umirzakova, N.A. Bioethic culture in Uzbekistan: national and religious aspects of. International Engineering Journal For Research & Development.

8. Умирзакова Н.А. Биоэтика как ценностная ориентация в профессиональной компетентности врачей //Гуманитарный трактат. – 2020. – №. 77. – С. 4-7.
9. Умирзакова Н. А. Аксиологическая функция биоэтики в формировании профессиональной компетентности у студентов // Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 115-123.

10. Умирзакова Н.А. Биоэтика как ценностная ориентация в профессиональной компетентности врачей //Гуманитарный трактат. – 2020. – №. 77. – С. 4-7.
11. Умирзакова Н.А. Востребованность биоэтики для гуманизации медицинского образования в Узбекистане //IX м1жнародного симпоз1 уму з бюетики здоров'я, медицина та фшософш: стратеги виживання. – С. 15-16.

12. Умирзакова Н.А. Аксиологическая функция биоэтики в формировании профессиональной компетентности у студентов //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 115-123.

13. Tillakhujayeva D., Umirzakova N.A. Human in a medical experiment //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 34. – С. 37-41.

14. Umirzakova N.A. et al. Knowledge and understanding of the principles of bioethics at the department of prosthodontics //Гуманитарный трактат. – 2020. – №. 97. – С. 4-6.

15. Умирзакова Н.А. Биоэтиканинг пайдо булиши, фан сифатида шаклланиши ва урганадиган муаммоларининг фалсафий-методологик тахдили //Фалсафа ва хдёт.-Тошкент. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 56-69.
16. Умирзакова Н.А. Биоэтические правила проведения пластических операций //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 221-226.
17. Умирзакова Н.А. Актуальность и востребованность биоэтики в медицинском образовании Узбекистана // Педагогика и психология в медицине: проблемы, инновации, достижения.-М. Издательство Перо. – 2021. – С. 291-295.
18. Umirzakova N.A. The importance of studying bioethics in the formation of professional competence of medical students // Научные исследования XXI века. – 2020. – №. 5. – С. 140-144.
19. Умирзакова Н.А. Гуманизм как основа медицины //SCHOLAR. – 2025. – Т. 3. – №. 4. – С. 68-72.
20. Умирзакова Н.А. Биоэтические вопросы проведения имплантологических вмешательств в контексте мировых религий //SCHOLAR. – 2025. – Т. 3. – №. 4. – С. 62-67.
21. Умирзакова Н.А., Инагамова С.Д. Решение этических проблем медицины в условиях цифровизации //GOLDEN BRAIN. – 2025. – Т. 3. – №. 4. – С. 94-100.
22. Умирзакова Н.А., Исмаилов У.М. Влияние цифровых технологий на диагностику и лечение: телемедицина, приложения для мониторинга здоровья //Academic research in educational sciences. – 2025. – №. Conference 1. – С. 229-233.
23. Собритдинова Ш.С., Умирзакова Н.А. Биоэтические аспекты применения искусственного костного материала ethoss //Russian-Uzbekistan Conference. – 2024. – С. 189-192.
24. Умирзакова Н.А. Значение социально-гуманитарных дисциплин в формировании гуманизма у будущих врачей // Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 11 Special Issue. – С. 380-383.
25. Умирзакова, Н. А. (2021). Биоэтические проблемы пластической хирургии в контексте ислама. Научные исследования XXI века, (2), 197-200.

1.